

## PSYCHOLOGISM OF CHILD CHARACTER IN THE WORKS OF SUSAN HILL

**Dilrabo Muzaffarovna Tokhirova**

Doctoral student

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

## SYUZAN HIL ASARLARIDAGI BOLA OBRAZI PSIXOLOGIZMI

**Dilrabo Muzaffarovna TOHIROVA**

Tayanch doktorant

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## ПСИХОЛОГИЗМ ОБРАЗА РЕБЕНКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ СЮЗАН ХИЛЛ

**Дилрабо Музаффаровна ТОХИРОВА**

Базовый докторант

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Tohirova D. M. Syuzan Hil asarlaridagi bola obrazi psixologizmi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 254-269.

<https://doi.org/10.36078/1735448819>

**Received:** November 18, 2024

**Accepted:** December 17, 2024

**Published:** December 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** The article analyzes the complex relationship between the young boy James Burnett and his friend Mart May in Susan Hill's "The Boy Who Taught the Beekeeper to Read" from the perspective of literary psychologism. Literary psychologism is an approach that focuses on a deep exploration of the inner emotions and psychological states of characters within a work. The study is aimed to illuminate James's internal conflicts and fears through his naivety, curiosity, and vulnerability. The discussion centers on three primary methods: the author's descriptions, dialogues, and nature imagery, all of which play a crucial role in reflecting the psychological state of the child. The author's descriptions evoke empathy in the reader by portraying James's physical and emotional conditions. Dialogues provide significant insights into James's anxieties and aspirations, particularly revealing the intricacies of his relationship with Mart Mey. Furthermore, nature imagery creates a contextual backdrop that reflects James's mental state, hinting at his internal struggles while emphasizing the fragility of his situation. This study uncovers essential themes such as childhood responsibility, loneliness, growth, and self-awareness within the story. The article employs a hermeneutic analysis to offer a clearer understanding of James's psychological state, allowing readers to grasp his emotional experiences more profoundly. The findings contribute to the advancement of new theories and approaches within the realm of literary psychologism, enriching the field of childhood psychology research.

**Keywords:** Literary psychologism; Child; Internal conflicts; Fear; Fragility; Curiosity; Nature imagery; Emotional state; Loneliness; Growth

**Annotatsiya.** Maqolada Syuzan Hilning "Asalarichiga o'qishni o'rgatgan bola" asaridagi bolakay Jeyms Burnett va uning do'sti Mart Mey o'rtasidagi murakkab munosabatlar badiiy psixologizm nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Badiiy psixologizm

qahramonlarning ichki hissiyotlari va psixologik holatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu maqolada, Jeymnsning qiziquvchanligi va zaifligi orqali uning ichki ziddiyatlari va qo'quvlarini yoritish maqsad qilingan. Maqolada uch asosiy usul – muallif tavsiflari, dialoglar va tabiat tasvirlari – bolaning psixologik holatini aks ettirishda muhim rol o'ynashi ko'rib chiqiladi. Muallif tavsiflari Jeymnsning jismoniy va hissiy holatlarini kitobxonda hamdardlik uyg'otadigan tarzda ifodalaydi. Dialoglar Jeymnsning xavotirlari va umidlari haqida muhim ma'lumotlar beradi, ayniqsa, Mart Mey bilan o'zaro munosabatlaridagi murakkablik ochib beriladi. Tabiat tasvirlari esa Jeymnsning ruhiy holatini aks ettiruvchi kontekst yaratadi, uning ichki kurashlariga ishora qiladi va peyzaj orqali bolaning nozik holatiga urg'u beriladi. Ushbu tadqiqot tadqiq qilinayotgan hikoyadagi bolalik mas'uliyati, yolg'izlik, o'sish va o'z-o'zini anglash kabi muhim mavzularni kashf qiladi. Maqola Jeymnsning psixologik holatini aniqroq tushunishga yordam beruvchi yangi yondashuv, ya'ni germevntik tahlil yordamida tahlil qiladi va kitobxonga uning hissiy kechinmalarini yanada aniqroq anglash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari badiiy psixologizm sohasida yangi nazariyalar va yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa bolalik psixologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni yanada boyitadi.

**Kalit so'zlar:** badiiy psixologizm; bola; ichki ziddiyatlar; qo'quv; noziklik; qiziquvchanlik; tabiat tasvirlari; hissiy holat; yolg'izlik; o'sish.

**Аннотация.** В данной статье анализируются сложные отношения между мальчиком Джеймсом Бёрнеттом и его другом Мартом Мэем в произведении Сюзан Хилл “Мальчик, который научил пчеловода читать” с точки зрения художественного психологизма. Художественный психологизм представляет собой подход, направленный на глубокое изучение внутренних чувств и психологических состояний персонажей произведений. В статье рассматривается, как наивность, любознательность и уязвимость Джеймса освещают его внутренние конфликты и страхи. Обсуждаются три основных метода — описания автора, диалоги и образы природы, — которые играют важную роль в отражении психологического состояния мальчика. Описания автора выражают физическое и эмоциональное состояние Джеймса таким образом, что вызывают сочувствие у читателя. Диалоги предоставляют важную информацию о тревогах и надеждах Джеймса, особенно в контексте его сложных отношений с Мартом Мэем. Образы природы создают контекст, отражающий психическое состояние Джеймса, указывая на его внутреннюю борьбу и переживания. Данное исследование раскрывает важные темы, такие как детская ответственность, одиночество, развитие и самосознание, присутствующие в анализируемом рассказе. Статья предлагает новые подходы к более глубокому пониманию психологического состояния Джеймса с использованием герменевтического анализа, что позволяет читателю лучше осознать его эмоциональные переживания. Результаты исследования способствуют развитию подходов в области художественного психологизма, что обогащает научные исследования, посвященные детской психологии.

**Ключевые слова:** художественный психологизм; ребёнок; внутренние конфликты; страх; нежность; любопытство; природные образы; эмоциональное состояние; одиночество; развитие

### Kirish

Badiiy asar yaratishning eng muhim omillaridan biri inson ruhiyatining badiiy tasviridir. Adabiyotshunos olim D. Quronovning fikriga ko'ra, adabiyot psixologiya sohasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, badiiy qahramon ruhiyatini, badiiy ijod yaratish va uni qabul qilish mexanizmlarini tushunish uchun adabiyotshunoslardan psixologiya borasida ma'lum bir bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi (8). Badiiy psixologizm deganda u yoki bu qahramonlarning ichki dunyosi, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, ruhiy holatlari nazarda tutiladi. Ushbu yondashuv tashqi fizik faoliyat, harakat, voqealar rivojidan ko'ra, aqliy va hissiyot bilan bog'liq xulq-atvorga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadigan ruhiyatga salmoqli urg'u beradi. Badiiy asar — insoning g'am-tashvishi, quvonchi ko'zguvidir. Inson ruhiy olami tasviri adabiyotda eskirmaydigan mavzu hisoblanadi. Zamonaviy adabiyotda badiiy psixologizm yanada salmoqli orin egallab bormoqda. A. B. Yesinning fikricha, badiiy psixologizm bu adabiyotning muayyan vositalari yordamida to'qima shaxs his-tuyg'u, fikr-kechinmalarini mukammal yaratishdir (15). A. I. Ginzburgning talqinicha, badiiy psixologizm qahramonning xayolga ham kelmagan, kutilmagan, nogahon xatti-harakat, fikr-tuygulari tasvirini o'z ichiga oladi (14). Rus yozuvchisi va adabiy tanqidchisi V. Belinskiy yozuvchi o'z ijodida inson ruhiyatini markaziy o'ringa qo'yib, uni tasvirlar ekan, uni ko'lanka qiyofasida emas, aksincha, jonli odam ko'rinishida, boshqa odamlardan uni ajratib turuvchi barcha xossalarga ega tarzda aks ettirmog'i lozimligini ta'kidlagan (13). A. N. Nikolyukin ta'biricha, badiiy psixologizm yozuvchining personaj yoki lirik qahramonning ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari, fikrlari, kechinmalari, xohish-istaklarini yoritishga qaratilgan portretidir (16). O'zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlari lug'atida badiiy psixologizm atamasiga badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jamlanmasi (7), badiiy psixologizmning bir necha mavjudlik shartlari mavjud. Qahramonlar mukammal, ko'p qirrali shaxs sifatida gavdalanadi. Qahramonlarning ichki xayollari, tuyg'ulari konflikt, istak, motivatsiya kabi holatlar yordamida chuqur tasvirlanadi.

Ong oqimi tasviri badiiy psixologizmning muhim xususiyati hisoblanadi. Bu hikoya texnikasi psixologizm bilan bevosita bog'liq hisoblanib, qahramon o'y-taffakkuri va hissiyotining erkin oqimini o'z ichiga oladi. Ong oqimi uchun fikr qanday paydo bo'lishini va aniq fikr paydo bo'lishidan oldin ong ostida sodir bo'ladigan jarayonlarni ko'rsatish muhimdir (3). Bunday o'y-fikrlarning tabiiy oqimi qahramonning ichki olamiga yorqin va tiniq nigoh bilan qarash imkonini yaratadi.

Ichki ziddiyat badiiy psixologizmning yana bir mavjudlik sharti hisoblanadi. Oxford Advanced Learner's Dictionary ma'lumotlariga ko'ra, ziddiyat — qarama-qarshi g'oyalar, fikrlar, his-tuyg'ular yoki istaklar mavjud bo'lgan vaziyat hisoblanadi (6). Badiiy asarda esa qahramonlar orasidagi ruhiy kurash, axloqiy tanlovlar, hissiy tugunlar, mavjudlik krizislari bilan ifodalanadi. Bunday nizolar asosan hikoya markazida turadi. Vandbergning tushuntirishicha, ziddiyatlar, kelishmovchiliklar ikki asosiy turga bo'linadi: ichki va tashqi ziddiyatlar. Ichki ziddiyatlar — insonning o'zi bilan o'zi kurashishidir. Tashqi ziddiyat esa bir qahramonning boshqa bir qahramon bilan kelishmovchiligidir (11).

Subyektiv reallik badiiy psixologizmning navbatdagi sharti hisoblanib, qahramon nuqtayi nazariga urg'u beradi, bu urg'u esa o'z o'rnida qahramonning shaxsiy fikri va ruhiy holatini o'zida mujassam etadi. Bu esa ba'zi holatlarda real hayot va qahramon aql-idroki orasidagi chegara chizig'ini xiralashtiradi (10).

Aqliy holatning batafsil tasviri ham badiiy psixologizmning muhim bir elementi hisoblanib, kognitiv lingvistika, ijtimoiy psixologiya, matn idroki kabi nisbatan yangi tendensiyalarning paydo bo'lishi va gurkirab rivojlanishi bilan adabiyotda ham bo'y ko'rsata boshladi (4). Qahramonning aqliy holati, kayfiyati, hissiyotini ochib berilishi metafora, o'xshatish, va boshqa badiiy unsurlar yordamida amalga oshiriladi.

Badiiy psixologizmning syujet rivojiga ta'sirini aytib o'tish lozim. Qahramonlarning detalli psixologik tasviri ko'pincha voqealar rivojini boshqarib turadigan motor hisoblanadi (9). Hodisa va harakatlar qahramonlar ichki dunyosini ochib berishda ikkinchi darajali hisoblanadi.

Badiiy psixologizm global fenomen sanalib, madaniyat va lingvistika chegarasida bo'ladi, bu kitobxonlarning inson kechinmalarining umumiy tomonlarini anglab yetishga, taqqoslashga, hayotiy xulosalar qilishga undaydi.

Psixologizm tushunchasi, aslida, kengroq falsafiy tushuncha hisoblanib, ijtimoiy munosabatlarni va strukturalarni psixologik ma'lumotlar, inson psixikasi xususiyatlari, odamlarning bevosita o'zaro harakatlarini tahlil qilish asosida tushuntiradi, badiiy adabiyotda esa odam psixikasi o'rganilishini va to'qima obrazlarga ko'chirilishini anglatadi. Badiiy psixologizmdan foydalanayotgan yozuvchilar qahramonlarning aqliy, hissiy holatlarini chuqur va murakkab tasvirlaydi, ularning xulq-atvoriga ta'sir qilayotgan ichki qo'rquvlari, xohish-istaklari, nizolari tasviriga urg'u beradi. Badiiy psixologizm har bir badiiy janrda turlicha shakl va hikoya texnikalari bilan namoyon bo'ladi.

Adabiyotshunoslar tomonidan ruhiy tahlil poetik vositalarining o'ndan ortiq turlari qayd qilingan bo'lib, ularga portret, monolog, dialog, nutqiy xarakteristika (rovij), peyzaj, tush, badiiy detal, hissiy harakatlar (mimika va pantomimika), gallyutsinatsiya kabilarni kiritish mumkin.

### Asosiy qism

Badiiy olamda bola qahramonlar begunohlik, sofflik, poklikning ramzi bo'lib xizmat qiladi. Bolalar dunyoni boricha qabul qilishadi, bu esa kattalarni doimo qiziqtirib kelgan, Syusan Hilning "Asalarichini o'qishga o'rgatgan bola" hikoyasi bu qiziqish mevasi hisoblanadi. Bu hikoya

bolalikdagi yo‘qotish, qayg‘u munosabatlarga bo‘lgan ta‘sir kuchini chuqur tasvirlaydi. Jeyms Burnett ismli yosh bola va uning yolg‘iz asalarichi Mart Mey bilan uchrashuvlari orqali Hil hissiy teranlik va murakkablikka boy tasvirlarni yaratadi. Asosan, hikoyada savodxonlik, murabbiylik mavzulari va bir shaxsning boshqa bir inson hayotiga ko‘rsatadigan chuqur ta‘siri o‘rganiladi. Qiziquvchan va kuzatuvchan Jeyms o‘zining yo‘qotish iztirobi bilan bog‘liq tuyg‘ularini boshqarar ekan, u beixtiyor Mart Meyning hayotida o‘zgarishlarning katalizatoriga aylanadi va uni savodsizlik bilan kurashishga va o‘rganish — ilm olish quvonchlarini tuyishiga sababchi bo‘ladi. Onasidan erta ayrilgan yosh bolakay qishloqqa xolasinikida yozni o‘tkazish uchun keladi. Otasi bilan qolmaganligining sababi otasi xavfli mamlakatda ishlaydi. Bolakay otasini ko‘rmaganiga esa qariyb bir yildan oshgan. Xolasi kattagina firmaga ega bo‘lib, asal yetishtirish bilan ham shug‘ullanadi. Asalarilarga mas‘ul ishchi esa na o‘qishni na yozishni biladigan Mart Mey edi. Jeyms buni bilib qolgach, unga, avvalo, o‘qishni o‘rgatishga kirishadi, ammo bu unga katta qiyinchilik tug‘diradi, chunki Mart Mey unga o‘qishni o‘rganish shart emas deb o‘ylaydi, bolakaydan qochishga harakat qiladi. Shunga qaramay, bolakay mart Meyni tinch qo‘ymasdan, go‘yoki uni ta‘qib qilgandek, dars qilishga undaydi. Bir necha marotaba bolakay yordamida o‘zining ismi-sharifini harflab aytishni o‘rganadi. Keyinchalik esa bolani sog‘inadigan, uning darslarini qo‘msaydigan bo‘lib qoladi. Bir kun tongda, boshida kuchli og‘riq bo‘lganidan ishga chiqmaydi, bu uning so‘nggi 9 yil ichida birinchi marta ishga bormagani edi. Shu bilan bir necha hafta ishga chiqmaydi. Ishga chiqqanda esa bolakay allaqachon ketgan edi. Mart Mey kasal bo‘lganda, bolakay har kuni erinmasdan ikkita kitob va daftar bilan ular shug‘ullanadigan joyda kutib turardi. Mart Mey qandaydir o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoladi, chunki u tugatmagan ish bor edi: oxirigacha bolakay bilan shug‘ullanish, afsuski bolakay bilan xayrlasha olmadi ham. Ancha vaqtgacha bolakay xuddi to‘satdan keladigandek tuyulib yurdi. Ammo vaqt o‘tdi, kuz oxiriga yetdi. Bolakay bergan dars behuda ketmadi, Mart Mey 2 ta gazeta sotib oldi va shular bilan shug‘ullandi. Kelasi yil bahor fasli oxirida bog‘da ikkita bola o‘ynab yurardi. Mart Mey ko‘zlariga ishonmadi, bolakay o‘zi bilan o‘rtog‘ini ham olib kelgandi.

Germenevtik tahlil — matn, nutq yoki boshqa belgilar tizimining ma‘nosini, kontekstini va maqsadini chuqur tushunishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu tahlil metodologiyasi asosan adabiyotshunoslik, falsafa, tarix va huquqshunoslik kabi ijtimoiy sohalarida qo‘llaniladi.

Germenevtika so‘zi yunoncha “hermeneutikos” (tushuntirish) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu yondashuvning tarixi qadimgi yunon falsafasiga, xususan, Aristotel va Platonning asarlariga borib taqaladi. Renessans davrida germenevtikada yangi rivojlanishlar yuz berdi, ayniqsa bu o‘sish tendensiyalari diniy matnlarni talqin qilishda keng ko‘lamda sezildi. XIX asrda nemis faylasufi Friedrich Schleiermacher germenevtikani yanada rivojlantirib, matnning muallifi va kitobxon o‘rtasidagi aloqaga e‘tibor qaratdi, ya‘ni yozuvchi maqsadining kitobxonlar tomonidan qanday tahlil qilinishi muhimligini ta‘kidladi. XX asrda Martin Heidegger va Hans-Georg Gadamer kabi faylasuflar germenevtikani yanada kengaytirib, tafakkur jarayonida til va



madaniyatning o'rnini ta'kidladilar (1). Gadamer, xususan, "tushunish" jarayonining interaktiv va dialektik xarakterli ekanligini aniqladi. U, shuningdek, "tarixiy tafakkur" tushunchasini fanga kiritdi, bu esa kitobxonlarning matnni qanday talqin qilishi uning o'z tarixiy rivojlanish asosiga bog'ligini kashf qildi (2).

Hozirgi kunda germevntik tahlil turli sohalarda, jumladan, psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslikda keng qo'llaniladi (12). Bu yondashuv, matnlarning ma'nosini va ularning ijtimoiy kontekstini chuqurroq tushunishga yordam beradi, shuningdek, kitobxonlar va auditoriya o'rtasidagi aloqalarni yanada boyitadi.

Quyida mana shu hikoyada yozuvchi Syuzan Hil qanday qilib bolaning ruhiy tasvirini yaratganligini, qanday unsurlardan foydalanganligini germevntik tahlil qilib chiqamiz.

"Nima qilyapsiz?"

*Bola ovozida qandaydir jasorat bo'lishi mumkin, lekin uning yuragida qo'rquv ham bor edi, ovozdagi jasorat esa bu qo'rquvni yashira olmasdi (5, 3).*

Hikoyaning bu debocha qismi bolalik hissiyotlarining murakkabligini aks ettiradi. Jeymnsning ovozdagi jasorat va qo'rquvi uning ichki ziddiyatlaridan dalolat beradi. Uning yaqqol eshitilib turgan ovozdagi jasorat o'ziga bo'lgan ishonchni aks ettirsa-da, qo'rquv esa uning zaifligiga ishora qiladi. Bu esa bola hissiyotlari, kechinmalari kattalarnikiga o'xshab dual xususiyatga egaligidandir.

*...u oriq, qo'l-oyoqlari po'stlog'i archilgan novdaday ko'kimtir, sochlari oq-sariq bola edi... (5, 3)*

Bu fizik jihatlarni beruvchi portret Jeymnsning nozikligini va yoshligini ta'kidlab ko'rsatadi. "Novdaday ko'kimtir" tasviriy ifodasi tabiat bilan bog'liqlikni anglatib, uning begunohligini va pokligini yanada kuchaytirib ifodalaydi. Bu tavsif kitobxonda hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi va Jeymnsni nozik qiyofali shaxs sifatida gavdalantiradi, shu bilan birga ko'pincha bolalik davriga xos bo'lgan mo'rtlikni ham alohida ta'kidlaydi.

*Bolakay tizzasiga tushadigan shortik kiyib olgan edi, paxtali ko'ylagi va yoqalari top-toza edi (5, 4).*

Jeymns kiyim-boshining ushbu tavsifi uning xarakteristikasini boyitib, uni yaxshi parvarish qilingan bola sifatida ko'rsatadi, bu esa uning tarbiyasini aks ettirishi mumkin. Uning ozoda ko'rinishi atrofdagi qo'pol va tartibsiz sharoitga zid bo'lib, bu uning begunoh qiyofasi bilan hayotning haqiqatlari o'rtasidagi ziddiyatni namoyon etadi.

*Bola jimgina kuzatib ergashdi, uning ko'kimtirgina jussasi ulkan, chayqalayotgan asalarichining orqasida kichik bir sharpaga o'xshardi (5, 5).*

Bu metafora bolaning kuzatuvchan tabiatiga urg'u beradi. Uning sukunati asalarichiga bo'lgan hurmat va ehtiromni anglatadi, bu uning atrof-muhitni sinchkovlik bilan o'zlashtirayotganini ko'rsatadi, bu bolaning yangi joyga, odamlarga, sharoitga adaptatsiya qilishi uchun muhimdir.

— *Endi nima bo'ladi?*

— *Endi arilar joylashadi, bu biroz vaqt oladi.*

— *Sizni arilar chaqib olmadimi?*

— *Arilarning qorni to‘q, qorni to‘qligida chaqish uchun bukilolmaydi.*

— *Nima uchun bu yopinchiqni o‘rab oldingiz?*

— *Har ehtimolga qarshi, ehtiyot shart.*

— *Ular qachon chaqishi mumkin?*

— *Qachonki ularni nimadir xafa qilsa.*

— *Ularni nima xafa qiladi?*

— *U-bu narsalar... Qirolicha aridan judo bo‘lganda, odamlar ularning yo‘liga to‘siq bo‘lganda, momaqaldiroq... (5, 6).*

Jeymsning savollari uning qiziquvchanligini va beg‘uborligini aks ettiradi. Dialog bolaning ham xavf, ham go‘zallikni ifodalovchi asalarilar haqida ko‘proq bilishga bo‘lgan ishtiyoqini ko‘rsatadi. Uning so‘roqlari hikoyani harakatlantiradi va asalarichining dunyosiga bo‘lgan qiziqishini namoyon etadi, shu bilan birga bilimga intilishiga ishora qiladi.

— *Endi nima qilyapsiz?*

*Bolakay asalarichini tutunlar ichidan chiqib ko‘rina boshlaganini jimgina kuzatib turardi.*

— *Arilarni tutatyapman.*

*Bola birinchi marta kulib yubordi: “Arilarni tutatyapman?” (5, 7)*

“Arilarni tutatish”dagi bolaning kulgisi uning asalarichi bilan munosabatlaridagi taranglikning bo‘shashishi bilan bog‘liq tub burilish nuqtasini anglatadi. Bu kulgi uning asalarichi bilan munosabatidagi ortib borayotgan qulayligini, iliqlikni aks ettiradi, uning qiziquvchanligini umumiy tajribaga aylantiradi. Bu muloqot hazil ularni bog‘laydigan ko‘prik ekanligini ham ko‘rsatadi. Bu kulgi har ikki qahramonga yengillik beradi, ularning munosabatlarini yanada yaqinlashtiradi.

— *Mening oyim vafot etdi, shuning uchun ham bu yerdaman.*

*Ularni o‘rab olgan chang-to‘zon xuddi soatning to‘xtashiga o‘xshab to‘xtab qoldi (5, 8).*

Bu ta’sirli bayonot Jeymsning hayotidagi chuqur yo‘qotish iztirobini oshkor etadi. Jeyms xolasining qishloqdagi uyiga tashrif buyurishi va Mart Mey bilan do‘stlashishga harakat qilishining sababi ham shu edi. Yozuvchi bu orqali kitobxonlarni unga hamdardlik bildirishga undaydi hamda bolalikdagi qayg‘u ko‘pincha yolg‘izlik bilan birga kelishini ta’kidlaydi. Tabiat tasviri esa sokinlik va turg‘unlik hissini bildirib keladi, bu uning onasini yo‘qotishi ortidan vaqt to‘xtab qolganek bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu tasvirlar g‘am-g‘ussaning bolakay uchun og‘irligini anglatadi, uning qayg‘usi unga og‘ir botganini anglatadi. Statik muhit uning ichki holatini aks ettiradi, onasining o‘limining chuqur ta’siri tashqi dunyo va uning ichki tajribasi o‘rtasida nomuvofiqlikni keltirib chiqarganligini ko‘rsatadi. Bunday kechinma esa o‘z o‘rnida bolakayning zaifligi va izolyatsiyasiga olib keladi.

*Shundan so‘ng ular haftasiga bir necha marta uchrashib turishdi. Bola Mart Mey qayerda ishlamasin, o‘sha yerda paydo bo‘lardi, go‘yo uni kutib, izidan ergashib yurgandek (5, 8).*

Bu roviy nutqiy xarakteristikasi Jeymsning aloqa o‘rnatishga bo‘lgan qat’iyati va intilishini ko‘rsatadi. Uning doimiy hozir bo‘lishi chuqurlashib borayotgan hissiy bog‘liqlikni aks ettiradi, bu esa u asalarichi bilan vaqt o‘tkazishidan taskin topishini anglatadi. Bunday o‘zaro munosabat ikkala qahramon hayotida ularning do‘stligi naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

*Otam xavfli bir davlatda ishlaydi, men esa u yerga borolmayman, ruxsat berishmaydi* (5, 8).

Ushbu bayonot Jeymsning oilaviy vaziyatini ochib berish orqali uning shaxsiyatini yana-da yaqindan tanishtiradi. Otasining xavfli ishda ishlashi zaiflik va himoya mavzularidan dalolat berib, Jeymsning tashlab ketilganlik hissi va otasining xavfsizligi uchun xavotir olayotganligini anglatadi.

— *Agar sen bu yerda hovuzga tushib ketmasang, arilarning yo‘lini to‘smasang, mutlaqo xavfsizsan.*

— *Men suzishni bilaman.*

— *Agar men cho‘kib ketgudek bo‘lsam, ishingizdan ayrilarmidingiz?*

— *Katta ehtimol bilan.*

— *Ehtimol.*

Uning ovozi nay kabi tiniq va qizlarga xos jarangdor edi (5, 9).

Ushbu oddiy bayonot Jeymsda qobiliyatlilik va mustaqillik tuyg‘usini aks ettiradi. Bola o‘z qobiliyatlari va mustaqilligini ta‘kidlaydi, bu tuyg‘u esa bir qadar uning yo‘qotishi va oilasi haqidagi tashvishlaridan kelib chiqqan nochorlikka qarshi tura olish xususiyatini ko‘rsatadi.

“Agar men cho‘kib ketgudek bo‘lsam, ishingizdan ayrilarmidingiz?” degan savolida uning kattalar oldidagi mas‘uliyat va xatti-harakatlarining oqibatlarini anglashi namoyon bo‘ladi. Bu parcha bolaning ma‘sumlik va ziyraklik uyg‘unligini ko‘rsatadi. Bolaning asalarichining “Ehtimol” deya javobini takrorlashi uning suhbatga kirishishga urinishini ko‘rsatadi. “Uning ovozi nay kabi tiniq va qizlarga xos jarangdor edi” degan ovozing xususiyatlari ma‘sumligini va nekbinligini ta‘kidlab keladi.

— *Havo isib, jazirama bo‘lib ketdi, atrof jimjit, barglarning shitirlashi ham eshitilmasdi. Asalarilar uya ichida bezovta, ma‘yus g‘uvillashardi* (5, 10).

Tabiatning bu yorqin tasviri qahramonlarning ruhiy holatini aks ettiradi. Og‘ir ob-havo va notinch asalarilar Jeymsning ichki kurashlari va asalarichi bilan munosabatidagi keskinlikni aks ettiradi va noaniqlik muhitini kuchaytiradi.

— *U nima ekan?*

*Bola har doim kutilmaganda kelib qoladi, bu gal eski otxona orqasidan lip etib, chiqib keldi* (5, 11).

Jeymsning to‘satdan paydo bo‘lishi uning asalarichi hayotida katalizator sifatidagi roliga ishora qiladi. Uning kutilmaganda paydo bo‘lishi spontanlikni va bolaning kutilmagan lahzalarda quvonch baxsh etish qobiliyatini nazarda tutadi.

— *Devordagi eski javonni ko‘ryapsanmi?*

*“Birinchi yordam” deb o‘qidi bola.*

— *Yozuvlar deyarli o‘chib ketibdi.*

— *Ustida katta “X” bor. Uni ochsang, ichida tunuka quticha bor.*

— *Bu yerda bir necha qutichalar bor.*

— *Yozuvli quti.*

— *Ustiga “Milliy quritilgan sut” deb yozilganmi?*

— *Kumush tunuka quticha.*

— *Shunisimi?*

— *Ochib qara, agar ichida yalpizli qand bo‘lsa, o‘sha.*

— *Ohho!*



— *Bittasini olib ye! Og'zing namlanadi* (5, 12).

Ushbu dialogda bola va kattalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir eski javonni o'rganishdek oddiy vazifa orqali kechadi. Bola birinchi yordam qutisidagi "deyarli o'chib ketgan" harflarni diqqat bilan kuzatishi uning qiziquvchanligi va e'tiborlilikini ko'rsatadi, bu xususiyatlar ko'pincha bolalik ma'sumligi bilan bog'liq. Asalarichining "Bittasini olib ye! Og'zing namlanadi." degan hazilomuz taklifi iliqlik va o'rtoqlik tuyg'usini uyg'otadi, ularning aloqalarini mustahkamlaydi.

— *Afsus, bu yerda sen bilan o'ynashga o'rtoqlaring yo'q. Sen bu yerda ozroq yolg'izsan, faqat menga o'xshagan qarilar bor.*

— *Mening o'rtoqlarim yo'q.*

— *Bo'lishi kerak.*

— *Yo'q.*

— *Sen o'zingga do'st izlashing kerak.*

— *Men yangi maktabga boraman.*

— *Unda sen yangi maktabda yangi do'stlar orttirasan.*

— *Menmi?*

*Mart Mey javob berolmasdan tepaga qaradi. Bolakayning yuzida esa qandaydir tashvish bor edi. Sening hali do'stlaring ko'p bo'ladi. To'polon qilib, baqir-chaqir qilib birga kelib qolasizlar hali* (5, 13).

Ushbu parchada dialog bolaning yolg'izlik hissi va o'rtoqlikka intilishini ochib beradi. Uning "mening do'stim yo'q" degan gapi uning yolg'iz his qilishini tan olganligini anglatadi. Mart Meyning "Bo'lishi kerak" deb ta'kidlashi esa ijtimoiy umidlarni nazarda tutadi. Bolaning yangi maktabda do'st orttirish masalasida noaniqligi "Menmi?" degan ritorik savoli bilan sezilib turadi. Ya'ni bolakay yangi maktabda bolalar bilan do'stlasha oladimi yo'qmi, noma'lum, bolakay shundan tashvishda.

— *Yana bitta yalpiz qand olsam maylimi?*

— *Keyin qutini joyiga qo'yib qo'y.*

— *Bu sizning qutingizmi?*

— *Ha meniki.*

— *Ustiga ismingizni yozib qo'yishingiz kerak. Mart Mey deb. Maktabda hamma ashqol-dashqollaringizning ustiga ismingizni yozib qo'yishingiz kerak.*

— *Maktab shunda o'g'rilar uyasimi?*

— *O'g'rilar uyasi. Nega uyasi?* (5, 14)

Maktabga bunday tanqidiy qarash Jeymsning jamiyat tuzilmalariga nisbatan ishonchsizlik tuyg'usini aks ettiradi. Uning Mart Meyga tegishli quti ustiga ismini yozib qo'yishi kerakligi haqidagi izohi uning egalik qilish va o'ziga xoslikka intilishini ta'kidlaydi va ko'pincha e'tibordan chetda qolgan dunyoda bolaning tan olinishi zarurligini ko'rsatadi.

*Agar sizda mo'yqalam va ozroq bo'yoq bo'lganda edi, siz uchun o'zim ismingizni yozib qo'yardim* (5, 14).

Bu Jeymsning ijodkorligi, egalik hissi, o'ziga xoslikka intilishini aks ettiradi. Uning tunuka qutiga asalarichining ismini yozish haqidagi taklifi jamiyatda nimanidir kimniki ekanligini tan olish zarurligini anglatadi. Unda bolalar ko'pincha san'at va o'yin orqali o'zlarini qanday ifodalashi, ichki o'y-fikrlari, his-tuyg'ularini ochib berishi ko'rsatiladi.

*Ilgarilari bu bola juda g'alati, jiddiy, xotirjam va rangpar ko'rinardi, hozir esa bo'yoq qutisini ko'tarib, hovlida qo'ng'iroq chalib*

yurganida, u butkul o'zgarib ketgan, butun vujudi, fikri-xayoli qilayotgan ishi bilan edi. Bu tabiiy, deb o'yladi, Mart Mey. Tabiiy. U barcha bolalar kabi quvnashi, yonib turishi kerak. Buning uchun unga imkon berish kerak (5, 15).

Ushbu parchada Mart Mey kuzatuvlari orqali bolaning vaqt o'tib o'zgarishi hayratlanarli tarzda tasvirlangan. Dastlab "g'alati, jiddiy, xotirjam va rangpar" deb qabul qilingan bolaning fe'l-atvori hayratlanarli darajada o'zgaradi, chunki u zavqlanib tunuka idishga bo'yoqda Mart Mey ismini yozish bilan band.

*Bir necha daqiqadan so'ng bola yana uning yoniga keldi. Bu M-A-Y yoki M-E-Ymi?* (5, 15)

Ushbu lahza Jeysmsning yordam berish va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini ta'kidlaydi. Uning asalarichi ismining imlosiga qiziqishi uning nafaqat til va savodxonlik haqidagi bilimlari o'sib borayotganligini, balki ustozlik rolini ham qoyillatib bajarayotganligini ko'rsatadi. Bu esa asalarichi bilan o'zaro do'stlik muloqotining rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi.

— *Siz buni bilishingiz kerak.*

— *Xo'sh, men bilmayman, bilishim shartmas* (5, 16).

Bolaning bilimning muhimligini ta'kidlashi bolaning bilim olishning qadriga bo'lgan kuchli ishonchini aks ettiradi. Ushbu lahza ikkala qahramon uchun ham muhim voqelikni anglatadi, chunki ular ta'lim va shaxsiy o'sishning murakkabliklaridan o'tyaptilar.

— *Yam-yashil ko'zlar kattarib ketdi. "Mart Mey?"*

— *Bola ovozida hayrat bor edi. Chindan ham buni harflab ayta olmaysizmi?*

— *Yo'q, ayta olmayman.*

— *Bola bu mislsiz haqiqat bilan bir necha soniya kurashdi* (5, 16)

Bu lahza bolaning asalarichining savodsizligini anglab yetganini aks ettiradi. U bolalarning murakkab his-tuyg'ular va vaziyatlarni tushuna olish qobiliyatini ko'rsatib, bolada hamdardlik paydo bo'lgan daqiqani tasvirlaydi. Bolaning hayratlanishi nafaqat o'zi uchun, balki asalarichi uchun ham ta'lim olishning naqadar muhimligini tushunib yetgan hal qiluvchi paytni namoyon etadi.

*Bola yumshoq, sekin nafas oldi, qimtilgan lablari bilan hayratdan xo'rsindi.*

— *O'ylashimcha, — dedi u nihoyat, — agar o'rgansangiz, yaxshi bo'lardi* (5, 16).

Bu bayonot Jeysmsning g'amxo'rlik xususiyatini namoyon etadi. Uning asalarichiga o'qishni o'rgatish istagi bolaning o'qituvchilik rolini o'z zimmasiga olishini anglatadi. Bu o'zgarish o'sish va muloqot mavzulariga urg'u berib, do'stlik avlodlar o'rtasida o'rganishni qanday rivojlantirishi mumkinligini aks ettiradi. Bunday munosabat orqali turli yoshdagi insonlar bir-biridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

*Mart Mey noqulay ahvolga tushib qoldi va kuldi, demak, men maktabga qaytishim kerakmi? Yo'q, bola jiddiy turib javob berdi: men sizga o'rgataman* (5, 16).

Ushbu hazilomuz muloqot murabbiylik va ta'lim mavzulariga urg'u beradi. Jeysmsning asalarichiga o'rgatishni bo'yniga olishi rollarning o'zgarishini anglatadi, bu yerda bola yo'l ko'rsatuvchiga aylanadi.

*Bir hafta o'tdi. Bola har kuni ikkita kitob va ikkita qalam olib kelib kutardi, har kuni Mart Mey band edi.*

Bu jahd Jeymnsning qat'iyati va mas'uliyat tuyg'usini aks ettiradi. Uning asalarichiga o'rgatishga bo'lgan ishtiyoqi o'sishidan dalolat beradi, chunki u ularning munosabatlarida faol rol o'ynamoqda. Bu tirishqoqlik nafaqat uning do'stlikka qo'shgan hissasini, balki o'qituvchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatida shakllanayotgan shaxsiyatini ham namoyon etadi.

*U uzoq-uzoqlarda, dalalarda ish topib yurardi, lekin bola uni har doim topib olardi, go'yo qandaydir sehr bilan uning orqasida yoki yonida ikkita kitob va ikkita qalam bilan gavgaldanardi (5, 17).*

Bu tasvir bolaning qat'iyatini va asalarichiga bo'lgan bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning Mart Meyni topa olish qobiliyati ular o'rtasidagi ichki aloqadan dalolat beradi. Bu esa ularning munosabati shunchaki tasodifiy uchrashuvlardan iborat emasligini, balki hissiy ehtiyojga asoslanganligini ko'rsatadi.

*Havo rutubatli bo'lib qoldi. Quyosh oltingugurt tusini oldi. Daraxt barglari og'ir bo'lib osilib turardi. Asalarilar bezovtalandi (5, 17).*

Tabiat tasvirlari ko'pincha qahramonlarning hissiy manzarasini aks ettiradi. "Rutubatli ob-havo" bolaning ichki kurashlari va u duch keladigan qiyinchiliklarni aks ettiradi. Tabiat emotsional ohangni kuchaytiruvchi fon vazifasini o'taydi, bu tashqi holatlar bola ruhiyatiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

*Endi boshlashimiz kerak, dedi bola asalarichining kulbasiga kira-kira. Bolaning kichikkina jussasi ortidan esa osmonda qorong'u bulutlar to'dalanayotganligi ko'rinib turardi (5, 17).*

Bu tasvirlar yaqinlashib kelayotgan o'zgarish yoki taranglik hissini ifodalaydi. Bolaning o'rgatishni boshlashga bo'lgan ishtiyoqi qorong'ilashayotgan bulutlarga qarama-qarshi o'laroq, u o'sishga tayyor bo'lganida, tashqi qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu ikkiyoqlamalik va qarama-qarshilik hikoyaning emotsional teranligini oshiradi.

*Xo'p, birinchi, ismingizning harflarini alifbodan topib olamiz, M, kichkina barmog'i bilan ko'rsatdi. Barmoq tagida harflar tek turardi (5, 18).*

Bu lahza o'rganish safarining boshlanishini bildiradi. Jeymnsning asalarichilik bilan shug'ullanuvchi kishining ismidagi harflarga e'tibor qaratishi, bolaning savodxonlikka bo'lgan qiziqishini aks ettiradi. Bu esa tilning shaxsni anglash va muloqot o'rnatishdagi muhim ahamiyatini ta'kidlaydi.

*Keyin E keladi, kichkina barmoq kitob uzra bemalol ishonch bilan harakatlanardi (5, 18).*

Ushbu o'zaro aloqa o'rganish va kashfiyot quvonchini anglatadi. Jeymnsning asalarichiga ta'lim berishga bo'lgan ishonchi uning kuch va ustoz sifatidagi vakolati tuyg'usining o'sib borayotganini ko'rsatadi. Unda ta'lim orqali imkoniyatlarni kengaytirish mavzusi yoritilib, har ikki qahramonning o'zaro ta'siri orqali qanday rivojlanishi ko'rsatilgan.

Bu darslar har kuni davom etdi. Har kuni ertalab va tushdan keyin bola uning yoniga bamaylixotir kirib kelardi.

*M-A-R-T M-E-Y (5, 19).*

Ushbu bayonotdagi takroriy harakat Jeysmsning asalarichiga o'rgatishga sodiqligini ta'kidlaydi. Bu uning fidoyiligi va ularning munosabatlarida tartibning ahamiyatini ko'rsatadi, o'rganish, ta'lim uzluksiz jarayon degan g'oyaga ishora qiladi.

*M-A-R-T M-E-Y, siz uddalaysiz, siz qila olasiz. Men sizga ertaga o'zimning ismimni harflab aytishni o'rgataman* (5, 20).

Bu rag'batlantirish Jeysmsning xarakterini to'liq aks ettiradi — u qo'llab-quvvatlovchi, optimist va o'quvchisidagi rivojlanish imkoniyatlariga ishonadi. Uning asalarichiga bo'lgan ishonchi bolaning o'zgarishga bo'lgan kuchli ishonchini ko'rsatadi, bu esa ular do'stligining yaxshi tomonga o'zgartiruvchi kuchiga ishora qiladi.

*4 kun o'tdi, keyin esa yana 3 kun. Bola shu bilan Mart Meyni ko'rmadi* (5, 21).

Mart Meyning hikoyada ko'rinmay qolishi emotsional taranglikni kuchaytiradi. Jeysmsning xavotiri uning asalarichiga bo'lgan chambarchas bog'lanishini aks ettiradi va ularning munosabatlari qanchalik muhim bo'lganini ta'kidlaydi. U yo'qotish mavzusini va ayriliqning bola ruhiyatiga ta'sirini aks ettiradi.

Munozara — hikoyadagi bolaning psixologik holati uning bolalikdagi qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan sayohatini aks ettiruvchi hissiyotlarning murakkab o'zaro ta'siridir. Muallif bolakaydagi yolg'izlik, sinchkovlik, qo'rquv, qayg'u, xushyorlik tuyg'ularini ifodalar ekan, teranlikni ta'minlash uchun turli adabiy shakllardan mahorat bilan foydalanadi. Ular dialog, roviy nutqiy xarakteristikasi, tabiat tasviri kabilardir. Ushbu muhokamada bolaning psixologik holati bilan bog'liq asosiy mavzular, jumladan, uning odatiy bola bo'lishga intilishi, yo'qotishning ta'siri va aloqaga bo'lgan istagi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, hikoyada qo'llaniladigan badiiy psixologizmni yuzaga chiqaruvchi shakllar — muallifning tavsiflari, dialoglari va tabiat tasvirlari kabi toifalarga bo'linadi va bu elementlar bolaning hissiy manzarasini yoritish uchun qanday ishlatilishi tahlil qilinadi.

Bolaning psixologik holati uning hissiy murakkabliklari va kurashlari bilan murakkab tarzda bog'liq. Bola ko'pincha yolg'izlik hissini tuyadi, ayniqsa, uning do'stlari yo'qligi va kattalardan hamrohlik izlashga undashi bilan ajralib turadi. Bolaning qiziquvchan tabiati va atrofini o'rganishga intilishi bolalikdagi beg'uborlik, sofflik, poklik xususiyatlarining kuchliligidan dalolat beradi. Asalarilar va birinchi yordam qutisi haqidagi savollari uning atrof-muhitni o'rganish va tushunishga bo'lgan ishtiyoqini ko'rsatadi. Jasorat namoyon qilgan voqealarga qaramay, bola ba'zan qo'rquv bilan kurashadi, ayniqsa onasining o'limi va yangi maktabni boshlash oldidan sarosimaga tushishi uning qo'rquv va tashvishlariga sabab bo'ladi. Bolaning "normal" bo'lishga intilishi yoki Mart Meyning buyumlariga uning ismini yozib qo'yish taklifi uning ichki ziddiyati va qabul qilinish istagini aks ettiradi. Uning boshqalar bilan o'zaro munosabatlari, jumladan, Mart Mey bilan yoshlaridagi farqqa qaramasdan do'stlashishi ko'pincha boshqalar bilan bog'lanish va bolalikdagi odatiy quvonchlarni boshdan kechirish istagidan dalolat beradi. Ta'lim va shaxsiy o'sish mavzulari bola asalarichiga o'qishni o'rgatishdagi o'qituvchilik rolini o'z zimmasiga olganida paydo bo'ladi. Bu o'zgarish uning kichik yoshiga qaramasdan o'sib borayotgan

mas'uliyat va ishonch hissini aks ettiradi. Onasi o'limining ta'siri uning ruhiyatida katta bo'lib, bu tragediya uning hissiyoti va o'zaro munosabatlarini shakllantiradi. Hikoya davomida uning xatti-harakati va reaksiyalarini tushunishda qayg'u mavzusi markaziy o'rinni egallaydi.

Muallif bolaning ruhiy holatini samarali ifodalash uchun hikoyani boyitadigan va uning hissiy sayohatini tushunishni mukammallashtiradigan turli adabiy shakllardan foydalanadi. Bu shakllarni rang-barang tasvirlar va dialoglardan tortib, tabiatning xayoliy tasvirlarigacha turkumlashtirish orqali har bir element bolaning ichki dunyosini tasvirlashga qanday hissa qo'shishini va hikoyaning umumiy mavzuiy teranligini oshirishini ko'rib chiqish mumkin.

Muallif tavsiflari bolaning ham jismoniy, ham hissiy xususiyatlariga e'tibor qaratish orqali uning psixologik holatini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Jismoniy jihatdan, bola mo'rtligi va zaifligi ta'kidlanadi. Ushbu tasvirlar kitobxonda hamdardlik uyg'otadi, uning nozik holatiga e'tiborni jalb qiladi va uning ostidagi hissiy kurashlarga ishora qiladi. Bundan tashqari, muallif bolaning ichki ziddiyatlari va qo'rquvlarini yorituvchi "g'amgin" va "jiddiy" kabi iboralar orqali uning hissiy holatlari haqida ma'lumot beradi. Bunday yorqin tasvirlar kitobxonga bolaning og'ir ahvoliga hamdard bo'lish va uning kechinmalari og'irligini tushunish imkonini beradi. Hikoya davomida dialoglar bolaning xavotirlari va istaklarini, ayniqsa, kattalar va asalarichi bilan o'zaro munosabatlarida ochib berishda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Mart Mey bilan bo'lgan dialogda ikkilanib "Men do'st orttirmanmi?" kabi savollarni beradi. Ushbu so'rov uning yolg'izlikdan qo'rqishini ko'rsatadi va bolalikdagi noaniqliklar bilan kurashayotganda unga tasalli berish zarurligini ta'kidlaydi. Dialoglar orqali tushunishimiz mumkinki, uning asalarichi bilan o'zaro munosabatlari boshqa dinamikani aks ettiradi, bu yerda bolaning qiziquvchanligi va o'sib borayotgan ishonchi uning zaifligi, izolatsiyasidan ustun keladi. Ushbu ruhiy o'sish bolaning paydo bo'layotgan iroda va aloqa hissini ko'rsatadi. Hikoyadagi tabiat tasvirlari bolaning ruhiy holatini aks ettiruvchi, hikoyaning hissiy teranligini oshiruvchi signal fon vazifasini o'taydi. Rutubatli ob-havo va qorong'i bulutlar kabi atmosfera sharoitlari bolaning ichki notinchligini samarali aks ettiradi, u duch keladigan kurashlarni oldindan ko'rsatadi. Tashqi muhit va bolaning his-tuyg'ulari o'rtasidagi bu uyg'unlik hikoyaning hissiy rezonansini kuchaytiradigan samarali sinerjiyani yaratadi. Bundan tashqari, arilarning xatti-harakati bola ruhiy holatini aks ettiruvchi ramziy element bo'lib xizmat qiladi. Masalan, asalarilar bezovtaligi bolaning xavotirini aks ettiradi.

### Xulosa

Badiiy psixologizm, asar ichidagi qahramonlarning ichki hissiyotlari, psixologik holatlari va o'zaro aloqalarini chuqur o'rganishga imkon beruvchi yondashuv sifatida, bolalik davridagi murakkabliklar, nozikliklar va qiyinchiliklarni kashf etishga yordam beradi. Asar orqali, Jeyms Burnettning soddaligi, beg'uborligi, qiziquvchanligi va zaifligi uning ichki ziddiyatlari va qo'rquvlari bilan birga aniq tasvirlangan. Tahlil jarayonida muallif tavsiflari, dialoglar va tabiat tasvirlari kabi uch asosiy metodologiya o'rganildi. Muallif tavsiflari Jeymsning jismoniy va hissiy



holatini kitobxonlar uchun ko‘rinadigan tarzda taqdim etadi, bu esa kitobxonni qahramon bilan uzviy bog‘lanishga undaydi. Mart Mey bilan sodir bo‘lgan dialoglar Jeymsning xavotirlari va umidlari, qiziquvchan fe‘lidan darak berishi anilandi. Bu o‘zaro munosabatlar, Jeymsning ichki ziddiyatlari, kechinmalari va ularning natijasida yuzaga keladigan hissiy holatlarini yanada aniqroq namoyish qiladi. Tabiat tasvirlari hikoya qahramonlarining ruhiy kontekstini yaratishda muhim rol o‘ynaydi, Jeymsning ruhiy holatini va uning atrofidagi muhit bilan o‘zaro aloqasini aks ettiradi. Ushbu tasvirlar bolaning nozik psixologik holatini va ichki dunyosini yoritib, kitobxonlar uchun uning hissiy kechinmalarini yanada chuqurroq anglash, empatiya hosil qilish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot bolalik mas‘uliyati, yolg‘izlik, shaxsiy rivojlanish va o‘z-o‘zini anglash kabi muhim motivlarni yoritadi. Jeymsning psixologik holatini yanada aniqroq tushunishga yordam beruvchi yangi yondashuv hisoblanmish hermenevtik tahlil metodologiyasi, ya‘ni matnning ma‘nosi va kontekstini chuqur tushunishga qaratilgan yondashuv, ushbu tadqiqotda asardagi psixologik qatlamlarni ochib beradi va kitobxonlarga bolaning ichki dunyosini yanada yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi. Ushbu maqola badiiy psixologizm sohasida yangi nazariyalar va yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, bolalik psixologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni boyitadi. Asar orqali bolaning ichki dunyosi va nozikligi keng ko‘lamda yoritilib, badiiy psixologizm yondashuvi yordamida kitobxonlarga bolaning hissiy holatini yanada ravshanroq qiladi. Bu, o‘z o‘rnida bolalar psixologiyasini o‘rganish va tahlil qilishda yangi nazariyalar va metodologiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boell, S. K., & Cecez-Kecmanovic, D. A hermeneutic approach for conducting literature reviews and literature searches. — *Communications of the Association for information Systems*, 34(1), 2014. — P. 262–263.
2. Gadamer, H. G. *Philosophical Hermeneutics*. — Berkeley: University of California Press, 1976. — P. 3–17
3. Gegeshidze, T. “Stream of Consciousness” and Otar Chiladze's Novels. — *Georgia: The kartvelologist journal of georgian studies*, 19, 2013. — p 2.
4. Hartner, M. *Fictional Characters in Literary Theory a Short History*. — France: University of Lyon, 2024. — 245 p.
5. Hill, S. *The boy who taught the beekeeper to read*. — Boadway: Random House, 2004. — P. 3–23.
6. *Oxford Advanced Learner’s Dictionary*. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — 315 p.
7. Quronov D. *Adabiyotshunoslik lug‘ati*. — Toshkent: Akademnashr, 2013. — 408 b.
8. Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. — Toshkent: Hayot nashriyoti, 2002. — 103 b.
9. Tu, C., & Brown, S. Character mediation of plot structure: Toward an embodied model of narrative. — *Frontiers of narrative studies*, 6(1), 2020. — P. 77–112.

10. Unrue, D. Poe and the Subjective Reality. — *ARIEL: A Review of International English Literature*, 7(3), 1976. — P. 68-69.
11. Wandberg, R. *Conflict Resolution: Communication, Cooperation, Compromise*. — Minnesota: Capstone Press, 2001. — P. 5-8.
12. Wolff, J. The interpretation of literature in society: The hermeneutic approach. — *The Sociological Review*, 25, 1977. — P. 18-31.
13. Белинский В. Г. Сборник сочинений, том 5. — Москва: Издательство ФА СССР, 1954. — 317 с.
14. Гинзбург Л. Я. О психологической прозе. О литературном герое. — СПб: Азбука, 2016. — 300 с.
15. Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы: учебное пособие. — М.: Флинта: Наука, 2011. — 265 с.
16. Николюкин. А. Н. Литературная энциклопедия терминов и понятий. — Россия: Российская академия наук, институт научной информации по общественным наукам, 2001. — 382 с.

### References

1. Boell S. K., & Cecez-Kecmanovic, D. *A hermeneutic approach for conducting literature reviews and literature searches*, *Communications of the Association for information Systems*, 34(1), 2014, pp. 262–263.
2. Gadamer H. G. *Philosophical Hermeneutics*, Berkeley: University of California Press, 1976, pp. 3–17.
3. Gegeshidze, T., *Stream of Consciousness and Otar Chiladze's Novels*, Georgia: The kartvelologist Journal of Georgian Studies, 19, 2013, 22 p.
4. Hartner M., *Fictional Characters in Literary Theory a Short History*, France: University of Lyon, 2024, 245 p.
5. Hill S., *The Boy Who Taught the Beekeeper to Read*, Boadway: Random House, 2004, 3–23 p.
6. *Oxford Advanced Learner's Dictionary*, Oxford: Oxford University Press, 2010. 315 p.
7. Quronov D., *Adabiyotshunoslik lugati* (Dictionary of Literary Studies), Toshkent: Akademnashr, 2013, 408 p.
8. Quronov D., *Adabiyotshunoslikka kirish* (Introduction to Literary Studies), Toshkent: Hayot nashriyoti, 2002, 103 b.
9. Tu Carmen, & Brown S. *Character mediation of plot structure: Toward an embodied model of narrative*. *Frontiers of narrative studies*, 6(1), 2020, pp. 77–112.
10. Unrue D., *Poe and the Subjective Reality* *ARIEL: A Review of International English Literature*, 7(3), 1976, pp. 68–69.
11. Wandberg R. *Conflict Resolution: Communication, Cooperation, Compromise*, Minnesota: Capstone Press, 2001, pp. 5-8.
12. Wolff J. *The interpretation of literature in society: The hermeneutic approach*. *The Sociological Review*, 25, 1977, pp 18–31.
13. Belinskii V. G. *Sbornik sochinenii, tom 5*. (Collected Works, volume 5), Moskva: Izdatel'stvo FA SSSR, 1954, 317 p.
14. Ginzburg, L. Ya. *O psikhologicheskoi proze. O literaturnom geroe* (On Psychological Prose. About a Literary Hero), Saint Peterburg: Azbuka, 2016, 300 p.

15. Esin A. B., *Psikhologizm russkoi klassicheskoi literatury: uchebnoe posobie* (The Psychology of Russian Classical Literature: A Textbook), Moscow: Flinta, 2011, 265 p.
16. Nikolyukin. A. N. *Literaturnaya entsiklopediya terminov i ponyatii* (Literary encyclopedia of terms and concepts), Russia: Rossiiskaya akademiya nauk, institut nauchnoi informatsii po obshchestvennym naukam, 2001, 382 p.